



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
SURXONDARYO VILOYATI TERMIZ TUMANI HOKIMINING
Q A R O R I

Termiz tumani, At-Termiziy ko‘chasi 1-uy. 191200, tel.: (+99876) 36-32-200, faks.: (+99876) 36-32-200, termiz.t@exat.uz

2022 - yil 19 - yanvar

26-8-117-Q/22

Termiz tuman hokimligi

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining ayrim hujjatlariga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish, shuningdek, ba’zilarini o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblash to‘g‘risida” 2021-yil 30-dekabrda PF-42-son Farmoni va viloyat hokimining 2022-yil 14-yanvardagi 13-8-0-Q/22-sonli qarorining ijrosini ta’minlash haqida

Viloyat hokimining 2022-yil 14-yanvardagi 13-8-0-Q/22-sonli qarorining ijrosini ta’minlash maqsadida

QAROR QILAMAN:

1. Viloyat hokimining 2022-yil 14 yanvardagi “O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining ayrim hujjatlariga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish, shuningdek, ba’zilarini o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblash to‘g‘risida” 2021-yil 30-dekabrda PF-42-son Farmoni ijrosini ta’minlash haqida”gi 13-8-0-Q/22-sonli qarori rahbarlik va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Termiz tuman hokimining ayrim qarorlariga ilovaga muvofiq o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritilsin.

3. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilib borish tuman hokimining birinchi o‘rinbosari Sh.Qalandarov zimmasiga yuklatilsin.

Termiz tuman hokimi



Urinov SH. B.

Термиз туман ҳокимининг
2022 йил 19 январдаги
26-8-117-Q/22-сон қарорига
1-илова

Tuman hokimining ayrim qarorlariga kiritilayotgan o‘zgartirish va qo‘shimchalar

1. Termiz tuman hokimining “O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 10-avgustdagi “Nufuzli xalqaro sport musobaqalarida yuksak natijalarga erishgan O‘zbekiston sportchilarini jamoat va sport ishlariga keng jalb etish hamda sportchilarni va ularning trenerlarini rag‘batlantirish to‘g‘risida”gi PQ-3196-sonli qarori ijrosini ta’minlash haqida” 2017- yil 16-avgustdagi 1218-son qarorining 3-bandi chiqarib tashlansin, to‘rtinchi bandi uchinchi bandi deb hisoblansin.

2. Termiz tuman hokimining “O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 12-yanvardagi “Respublikada ipakchilik tarmog‘ini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3472-sonli qarori ijrosini ta’minlash haqida” 2018-yil 16-yanvardagi 76-son qarorining 3-bandi quyidagi tahrirda bayon etilsin:

3. Davlat aktivlarini boshqarish agentligining hududiy boshqarmasi tuman hokimligi bilan birgalikda bir oy muddatda “O‘zbekipaksanoat” uyushmasining hududiy “Agropilla” MChJni bepul foydalanish huquqi bilan joylashtirish uchun zarur xonalar ajratilishini ta’minlasin.”.